

кишлоқ хўжалиги хайвонларининг кучли захарланишига олиб келиши мумкин. Гемолимфаси организмга тушганда, тери бўшлиғи, яллиғланиш пуфакчалари билан копланиши мумкин. Пуфакчалар бир кун ичида йўқолади. Камроқ сезгир одамларда улар умуман кўринмайди.

Хулоса қилиб айтганда, *Epicauta* авлодининг дунё миқёсидаги тарқалган 250 га яқин турлари ичида Жанубий Оролбўйида фақат битта *Epicauta erythrocephala* тури эканлиги тасдиқланди, Марказий Осиёда бўлса 4 та тури тарқалган. *Epicauta erythrocephala* Жанубий Оролбўйининг барча табиий ва антропоген

худудларида кенг тарқалганлиги бу худудларда Осиё чигирткаси, Воҳа чигирткаси ва саксовул буқир чигирткаларининг ҳар йили катта колонияларининг учраши билан трофик боғланган. Имаголарининг июн ойидан сентябр ойигача нам тупроқларда 35 дан 62 тагача тухум қўйиши бу турнинг мазкур худуд иқлимига тўла мослашганлигидан далолат беради. Вояга етган кўнғизлар яйлов ўсимликларига, кўпинча беда ва бoshқа маданий ўсимликларга, хусусан, картош-ка, лавлагига зарар этказди. Аммо бу кўнғизнинг фойдаси зараридан кўра кўпроқ ҳисобланади.

Адабиётлар

1. Николаев Г.В. и Колов С.В. Жуки-нарывники (Coleoptera, Meloidea) Казахстана: биология, систематика, определитель. - Алматы: Казахский национальный университет имени аль-Фараби: «Казах университеті», 2005. -С. 23,1 66.
2. Bologna M.A. 1991. Fauna d'Italia. Coleoptera, Meloidae. Ed. Calderini, Bologna, P. 541. ISBN 88-7019-523-6
3. Гроссгейм А.А. Определитель растений Кавказа. -М.: 1949. -С. 732.
4. Косенко И.О. Определитель высших растений Северо-Западного Кавказа и Предкавказья. -М.: «Колос», 1970. -С. 613.
5. Левчинская Г. Н. Нарывники (Coleoptera, Meloidae) Украины: Авиорефератдиссертации кандидата биологических наук. - Харьков: 1969. -С. 24.
6. Чернышев С.Э. Жуки-нарывники (Coleoptera, Meloidae) степной зоны Евразии: Автореф. Дис. Канд. Биол. наук – Новосибирск: 1997. -С. 14.
7. Васильев В.П. Вредители сельскохозяйственных культур и лесных насаждений: В 3-х т. /Под общ. ред. В.П. Васильева. 2-е изд., испр. и доп. Т. 1. Вредные нематоды, моллюски, членистоногие/ Ред. тома В.Г. Долин. -К.: «Урожай», 1987.
8. Гиляров М.С. Определитель обитающих в почве личинок насекомых / под общ. рук. М.С. Гилярова. -М.: «Наука», 1964.
9. Государственный каталог пестицидов и агрохимикатов, разрешенных к применению на территории Российской Федерации, 2014 год. Министерство сельского хозяйства Российской Федерации (Минсельхоз России).
10. Колов С.В., Казенас В.Л. Жуки-нарывники (тип Членистоногие, класс Насекомые). Серия «Животные Казахстана в фототрафиях». - Алматы: 2013. -С. 110.
11. Крыжановский О.Л., Насекомые и клещи - вредители сельскохозяйственных культур. Том II. Жесткокрылые. -Л.: "Наука", 1974. -С. 336.
12. Лер П.А. Определитель насекомых Дальнего Востока СССР / под редакцией П.А. Лер. Т. III. Жесткокрылые или жуки. Ч. 1. -Л.: «Наука», 1989. -С. 572.
13. Осмоловский Г.Е. Определитель сельско-хозяйственных вредителей по повреждениям культурных растений. -Л.: «Колос», 1976, -С. 696.
14. Стриганова Б. Р., Захаров А. А. Пятиязычный словарь названий животных: Насекомые. Латинский-русский-английский-немецкий-французский. -М.: «РУССО», 2000. -С. 560.
15. Якобсон Г.Г. Определитель жуков. Издание 2-е. дополненное Оглоблиным Д.А. Государственное издательство сельскохозяйственной и колхозно-кооперативной литературы. -Москва: 1931. -Ленинград: Дата последней компиляции 13.02.2005

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада *Epicauta erythrocephala* турининг Жанубий Оролбўйида табиий ва антропоген худудларида тарқалиши, биоэкологик хусусиятлари ва *Epicauta erythrocephala* турининг личинка босқичида чигирткасимонларнинг кузачаларида паразитлик қилиб кишлоқ хўжалига фойда келтири билан бирга имаго босқичида ўсимликлар билан озикланиб кишлоқ хўжалигига зарари ҳақида келтириб ўтилган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассмотрены распространение *Epicauta erythrocephala* в природных и антропогенных зонах Южного Приаралья, биоэкологические особенности и польза видов *Epicauta erythrocephala* в личиночной стадии клеток кузнечиков путём паразитирования на клетках кузнечиков, а также упоминается ущерб сельскому хозяйству, питаются растениями в стадии имаго.

SUMMARY. This article discusses the distribution of *Epicauta erythrocephala* in the natural and anthropogenic zones of the Southern Aral Sea, bioecological features and the benefits of *Epicauta erythrocephala* species in the larval stage of grasshopper cells by parasitizing on grasshopper cells, and also mentions the damage to agriculture by feeding on plants in the adult stage.

«YASHIL URBANIZM» – ZAMONAVIY SHAHARLAR RIVOJLANISHINING ASOSIY YO'NALISHI SIFATIDA

S.K.Tashtayeva – *geografiya fanlari nomzodi, dotsent*

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

O.Yoqubov – *yetakchi mutaxassis*

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi

Tayanch so'zlar: shaharning barqaror rivojlanish kontsepsiyasi, yashil urbanizm, shahar, shahar dizayni, ekoshahar, shahar transporti, shaharni rejalashtirish, biofil urbanizm.

Ключевые слова: концепция устойчивого развития городов, зеленый урбанизм, город, градостроительство, экополис, городской транспорт, городское планирование, биофильный урбанизм.

Key words: the concept of sustainable urban development, green urbanism, city, urban planning, ecopolis, urban transport, urban planning, biophilic urbanism.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotida shaharlarning roli tobora ortib bormoqda. Dunyo shahar aholisi geometrik progressiya bilan ko'payishda davom etib, 2050-yilga borib 6,5 mlrd. kishini tashkil etishi ko'zda tutilmoqda. Natijada shaharlarga bo'lgan qarashlar ham tezlik bilan o'zgarib, ularning geografik o'rni, planirovkasi, arxitekturasini, dizayni yangi zamonaviy talablarni asosida takomillashib, modernizatsiya va renovatsiya ishlari borgan sari jadallashmoqda. Bunda uch asosiy tamoyil, ya'ni, aholi yashashi uchun shaharlarda sog'lom muhit, iqtisodiy barqarorlik va ekologik toza shahar yaratish bosh g'oya sifatida tan olinmoqda.

Ishning maqsadi va vazifalari. Mazkur tadqiqot ishini o'rganishdan maqsad- shaharlarni barqaror rivojlantirish bo'yicha jahon miqyosida olib borilayotgan yangi tajribalarni o'rganish va respublikaga tatbiq etishga yo'naltirishdan iborat. Maqsad doirasida quyidagi vazifalar bajarilgan: 1) yashil urbanizm tushunchasining kelib chiqishi va mazmun-mohiyatini yoritish; 2) mavzu bo'yicha olimlarning olib borgan tadqiqotlarini o'rganish; 3) konsepsiya tamoyillariga aniqlik kiritish; 4) dunyoda ushbu konsepsiya doirasida olib borilayotgan amaliy tajribalarni o'rganish.

Asosiy qism. Urbanizatsiya jarayonini olimlar umuman rivojlanish xususiyatlariga ko'ra uch bosqichga ajratishadi. Ilk urbanizatsiya davri e.av. 3000 yildan to eramizning

1800 yillarigacha bo'lib, noqishloq xo'jalik sohasining konsentratsiyasi ro'y beradi. Ikkinchi bosqichda-1800 yildan 1950 yillargacha shaharning sanoatlashuvi jarayoni ro'y beradi. Uchinchi bosqichda urbanizatsiyaning rivojlanishi bilan ekologiya o'rtasidagi qarama-qarshiliklar boshlanadi. Bu davrda, iqtisodiyotning globallashishi sababli ushbu munosabatlar yanada kuchayib, shaharlar planetaning eng "zararli" hududlariga aylandi. Aksariyat mamlakatlarda shaharlarning o'ta yiriklashib ketishi, aholi tabaqalanishi, tengsizlik, atrof-muhitning ifloslanishi, chiqindilarni yo'qotish, suv tanqisligi, energiya ta'minoti kabi muammolar keskinlashdi [8].

1996-yilda Shaharlarni rivojlantirish bo'yicha BMTning Stambul konferentsiyasida "Aholi punktlarini barqaror rivojlantirish" tushunchasi qo'llanildi. Barqaror shahar konsepsiyasining tarkibiy qismi va bir yo'nalishi sifatida so'nggi yillarda "yashil urbanizm" tushunchasi tez-tez tilga olinmoqda. Yashil urbanizm shaharlar boshqaruvining shaharlarni aholi va atrof muhit uchun foydali hududga aylantirish maqsadida olib borayotgan amaliy tajribalari asosida vujudga keldi.

Shaharlarni tabiat bilan uyg'unlashtirish g'oyalari garchi yashil urbanizm termini ishlatilmagan bo'lsada, XX asr boshlarida E.Govardning "Shahar-bog", Le-Korbyuz'ning "Quyoshli shahar", L.Raytning "Preiya uylari" loyihalarida, Arkologiya asoschisi amerikalik urbanist-arxitektor P.Soleri ishlarida ham aks etgan.

XX asr o'rtalarida sobiq Ittifoqda ham - Pushino, Obninsk, Dubna, Troitsk, Protvino kabi shahar hamda qishloqning uyg'unlashgan belgilarini o'zida mujassamlashtirgan kichik ekoshaharlar tashkil etila boshlangan edi. Biroq 1990-yillarda davlatning parchalanishi bu jarayonni to'xtatib qo'ydi.

1970-yillardagi ekstensiv iqtisodiyot, energetik inqiroz, tabiiy resurslarni ayovsiz ishlatish, atrof-muhitning o'ta ifloslanishi, shaharlar rivojlanishini barqaror emasligini ko'rsatdi va bu holat shaharlarga o'zgacha munosabatda bo'lishni taqozo qildi. Shaharlarni rivojlantirishda yangi siyosat, yangi amaliyot, yangicha yondashuv zarur bo'ldi, "yangi urbanizm" g'oyalari tizimi vujudga keldi. Ushbu muammolar va ularning yechimiga qaratilgan g'oyalari bir qancha olimlar, arxitektorlar, shahar boshqaruvchilarining ishlarida o'z aksini topdi. Xususan, J.Jekobsning "Amerika yirik shaharlarining hayoti va o'limi" (1962, 1970, 1993) kitobi hozirgi kunda urbanizatsiya jadal borayotgan davlatlar uchun muhim dastak bo'lib xizmat qilmoqda [4].

1987-yilda Richard Regist "Ekociti Berkeley: Sog'lom kelajak uchun shaharlar qurish" kitobida birinchi marta "ekociti" terminini ishlatdi. 1990-yilda avstraliyalik urbanist Pol Daunton "ekopolis" terminini qo'lladi va keyinchalik u ommalashib ketdi. [3:21].

Bizning fikrimizcha, yangi urbanizmning bir qancha yo'nalishlari bo'lib, ulardan ekopolis va yashil urbanizm bir-biriga yaqinroq. Ularning farqli tomonlari shundaki, yashil urbanizm kengroq tushuncha bo'lib ekopolisni ham o'z ichiga oladi. Yashil urbanizm (yashil shahar) nafaqat tabiat bilan shaharning uyg'unlashuvi, shaharni yashillashtirishgina emas, balki, ular bilan bog'liq boshqa iqtisodiy, ijtimoiy, geografik, demografik, shaharsozlik jarayonlari bilan ham kompleks holda qaraladi va bunda uch omil: iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omilning o'zaro muvozanati saqlanishi dardkor. Demak, yashil urbanizm qoidasining mohiyati shundan iboratki, minimal darajada energiya va resurslar ishlatib, minimal darajada atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatib, aholi talablarini maksimal darajada ta'minlashdan iborat.

Amerikalik yozuvchi D.Ouen o'zining "Yashil metropolis" (2009) asarida: "agar kompakt shaharda yashasak, biz atrof muhitga salbiy ta'sirimizni minimal darajada kamaytirgan bo'lar edik" degan fikrini rivojlantiradi va "kompakt shahar" yaratish g'oyasini ilgari suradi [7].

2011-yilda nashr etilgan "Shahar tantanasi" (Триумф города) kitobida Edvard Gleyzer shaharning aholi ustidan g'alaba qozonganini ta'kidlaydi. Shaharda aholi zichligining kamligi transport qatnovini ko'paytiradi, bu esa energiya sarfini oshiradi [2:299]. Shu bois "kompakt shahar" qurilishini ma'qullaydi.

Hozirda "yashil urbanizm" terminining faoliyati T.Bitli, R.Rodgers, P.N'yumann, Sh.Lemann kabi olimlar nomi bilan bog'liq bo'lib, ommalashib bormoqda.

2000-yilda amerikalik shaharshunos olim, Virjiniya universiteti Arxitektura maktabi professori Timoti Bitli barqaror shahar yaratishga oid "Yashil urbanizm: Yevropa shaharlari tajribasi" kitobini yozdi va unda shaharlarning tez o'sib ketishini tartibga solish va nazorat qilish yo'lida amaliy choralarni topdi. Bitli fikriga ko'ra, "Yashil urbanizm"-bu barqaror shahar dizayni bo'lib, ekologik toza shahar, atrof muhitga imkon qadar kam zararli ta'sir yetkazadigan, tabiat bilan uyg'unlashgan shahar landshaftiga ega, chiqindilarni qayta ishlovchi, o'z faoliyati uchun mahalliy materiallarni o'zi ishlab chiqaruvchi va aholi hayoti sifatining yuqori darajasiga ega bo'lishidir [1]. T.Bitli dengizbo'yi shaharlarini rivojlantirishda "moviy urbanizm" tushunchasini kiritadi. Moviy urbanizm - bu yangi paydo bo'lgan g'oyalari tizimi bo'lib, qirg'oq zonalarini kompleks boshqarish orqali dengiz muhitiga ehtiyotkorlik bilan ta'sir qilishdir [5:21].

S.Lemann fikriga ko'ra bu ham ogohlantiruvchi, kelajakni ko'zlagan holda barqaror shaharlarni tashkil etishning eng ma'qul yo'li yoki «ruxsat etilgan me'yorlari»dir. T.Bitli va S.Lemannning ilmiy va amaliy tadqiqotlari natijasida yashil urbanizmning quyidagi tamoyillari ishlab chiqildi: [6]

1. **Iqlim.** Iqlim sharoitlari har qanday shaharga ta'sir ko'rsatuvchi fundamental omil hisoblanadi. Mavjud landshaft, ob'ektga xos resurslar, yaqin atrofdagi mavjud mikroiklim bilan ishlash orqali atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatadigan, zamonaviy iqlim o'zgarishlariga qarshi turib bera oladigan, barqaror shaharga erishish.

2. **Energiya.** "Nol CO2 emissiyasi" uchun qayta tiklanadigan energiyani joriy qilish. Ushbu tamoyilning turli jihatlariga quyidagilar kiradi: energiya ta'minoti tizimlari va xizmatlari, energiyadan samarali foydalanish, qayta tiklanadigan energiya, shaharni energiya iste'molchisidan mahalliy qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqaruvchisiga aylantirish va energiya ta'minotining karbonsizlanishini oshirish.

3. **Chiqindi.** Chiqindisiz shahar yaratish: chiqindilarni qayta ishlagandan ko'ra chiqindi chiqarishni yo'qotish afzal. Shu bois shaharda chiqindi-shisha, plastik, qog'oz-karton, metall kabi chiqindilarni chiqarmaydigan yoki ulardan yangi mahsulotlar yaratish, ularni xom ashyo, resurs sifatida ishlatishni joriy etish.

4. **Suv.** Suv iste'molini kamaytirish, suv resurslaridan samaraliroq foydalanish yo'llarini izlash, yaxshi suv sifatini ta'minlash va suvli yashash joylarini himoya qilishni o'z ichiga oladi. Shaharda suv yig'adigan maydon hosil qilish, aholini suvni tejashga o'rgatish, yomg'ir suvi, oqava suvni yig'ib, qayta ishlab undan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish.

5. **Bioxilmaxillik:** Landshaft, yashil zonalar, shahar bog'larini yaratish, shahar qishloq xo'jaligini, yashil tomlarni joriy qilish, biofil dizaynni yaratish, ekosistemalarni barqarorlashtirish. Arid zonalarida salqinlashtirish va haroratni pasaytirish, havoni tozalash, shamollardan himoya qilish uchun yashil zonalarini ko'paytirish. Bu usul shahar landshaftlarida ekotizim barqarorligini maksimal darajada oshirishi kerak.

6. **Transport.** Barqaror transport va yaxshi jamoat maydoni: atrof-muhitga salbiy ta'sir darajasini pasaytiradigan har qanday transport turi -velosiped yoki piyoda kabi motorsiz transportni (velosiped, elektromobil, skuter), piyodalar uchun qulay muhitni, xavfsiz velosiped yo'laklari,

bepul velosiped ijarasi xizmatlarini shakllantirish.

7. Mahalliy materiallar. Mahalliy va ekologik toza, kam energiya talab qiluvchi va shaharning ichki energiyasidan foydalanuvchi materiallarni ishlab chiqarish. Ushbu tamoyilning turli jihatlariga quyidagilar kiradi: ilg'or materiallar texnologiyasi, barcha shahar loyihalari mahalliy materiallarga va texnologik innovatsiyalarga qaratilgan bo'lishi, etkazib berish zanjirlarini qisqartirish imkoniyatlaridan foydalanish.

8. Zichlik va modernizatsiya. Ushbu tamoyilning turli jihatlariga quyidagilarni o'z ichiga oladi: shahar markazini aralash foydalanish uchun to'ldirish, shahar markazini qayta tiklash va yashil maydonlar orqali shahar markazida aholini, binolarni zichlashtirish; zichlik va ixchamlik orqali barqarorlikni oshirish (ixcham arxitektura- gorizontalar emas, balki vertikal ravishda qurishni anglatadi); shaharsozlik va transport tizimlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish.

9. Passiv arxitektura va dizayn: Ushbu tamoyilning turli jihatlariga quyidagilardan iborat: yashil binolar va rayonlarni tashkil etish, barcha binolar va binolar guruhlarga passiv dizayn tamoyillarini qo'llash; ixcham quyosh arxitekturasini joriy etish; butun bino fondini ta'mirlash va modernizatsiya qilish. Quyosh energiyasidan unumli foydalanish, energiya saqlovchi, yoritish va isitishda eng qulay materiallardan, yangi texnologiya va geometrik figuralardan foydalanish.

10. Sog'lomlik. Bu tamoyil hayotiylik, sog'lom muhit, sog'lom jamiyat va aralash foydalanish (politsentrik, polifunksional) dasturlarini nazarda tutadi. Aralash daromadli shahar ko'proq ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

11. Hududiy ta'minot: mahalliy oziq-ovqat ishlab chiqarish; shahar dehqonchiligini shakllantirish, ko'pqavatli ferma-bog'lar ni yaratish, shaharga zarur materiallarni mahalliy o'zi uchun o'zi ishlab chiqarish.

12. Madaniy meros, o'ziga xoslik va joy hissi. Har bir shaharning o'ziga xos muhiti, iqlimi va boshqalar bor, har bir vaziyat o'ziga xosdir. Shaharni loyihalashda ushbu omillarning barchasi, jumladan, materiallar, tarix va aholining xohish-istaklari hisobga olinishi kerak, yaratilgan merosini himoya qilish va o'ziga xos madaniy o'ziga xoslikni saqlash, masalan, mahalliy biznesni rag'batlantirish, ijodkorlik va madaniy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashdir.

13. Boshqaruv. Shahar boshqaruvini takomillashtirish. Mavjud shaharni barqaror ixcham jamoalarga aylantirishda yaxshi shahar boshqaruvi juda muhimdir. U samarali jamoat transporti, yaxshi jamoat maydoni va arzon uy-joy va shahar boshqaruvining yuqori standartlarini ta'minlashi kerak.

14. Ta'lim, tadqiqot va bilim. Ushbu tamoyilning turli jihatlariga quyidagilar kiradi: texnik ta'lim va o'qitish, tadqiqotlar, tajriba almashish, ekologik shahar nazariyasi va barqaror dizayn haqidagi ilmiy nashrlar orqali bilimlarni tarqatish.

15. Rivojlanayotgan mamlakatlar shaharlari uchun strategiyalar. Rivojlanayotgan mamlakatlarning o'z

ehtiyojlari bor va ular maxsus strategiyalarga, tegishli texnologiya transferlari va moliyalashtirish mexanizmlariga muhtoj. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi shaharlar rivojlangan mamlakatlardagi kabi strategiya va bahslarga ega bo'lmashligi mumkin. Xuddi shunday, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar va tez rivojlanayotgan shaharlar uchun, shuningdek, norasmiy aholi punktlari va shaharlar xarobalari muammosi va xarobalarni yaxshilash dasturlari uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqish.

Shuni alohida aytish lozimki, o'simliklar urboekotizimi- ning juda muhim tarkibiy qismidir. Havo tarkibini saqlash, uni tozalash, namlash va dezinfeksiya qilishda ularning roli katta. O'simliklarni yetakchi komponent ekanligini hisobga olgan holda, shaharlarni rivojlantirishning mazkur yo'nalishi "yashil" nomi bilan ataladi va tamoyillarning barchasini asosida yashillik yotadi.

Mazkur tamoyillar asosida 2016-yilda BMT (Xabitat) tomonidan shaharlarning "Global platformasi" yaratildi. Hozirgacha unga ushbu tamoyillarga ma'lum darajada javob beradigan 30 ga yaqin shahar kiritilgan. Barqaror shaharni yaratish uchun yashil urbanizm tamoyillarini kompleks, tizimli va bosqichli ravishda qo'llash lozim. Ayrim tamoyillarni qo'llash qiyin, biroq bu yo'lda natijalarga erishilmoqda. Jahon shaharlari-Dubay, Mel'burn Shanxay, Kopengagen, Singapur kabi dunyoviy shaharlar o'rtasida ekologik xavfsiz hayot tarzini taklif etish uchun, investitsion kapitalni, malakali aholini o'ziga jalb etish uchun eng zamonaviy yutuqlarni o'zida mujassamlashtirgan shahar sifatida jozibador, madaniy ko'rinish uchun raqobat ketmoqda.

Yevropada shaharlar allaqachon mazkur konsepsiya asosida rivojlantirilmoqda. Buyuk Britaniyada yashil shaharlarni rejalashtirishga davlat katta e'tibor qaratadi va tabiat eng birinchi kapital deb hisoblanadi. Yaqin yigirma yil ichida London shahrining 50 foizi bog' va yashil zonalariga aylantirilishi rejalashtirilgan. Germaniya shaharlari tiklanadigan (quyosh va shamol energiyasini ko'paytirish) energiya turlaridan foydalanishga o'tish bo'yicha yetakchi. Kopengagen dunyoda uglerod gazi bo'yicha neytral shahar va velosipedlar hamda elektron jamaot transportidan eng ko'p foydalanuvchi shahar. Ispaniya shaharlari aholi talablari, tabiat omilini hisobga olish bo'yicha dasturlar ishlab chiqqan. Yashil zonalar bo'yicha Singapur dunyoda birinchi shahar hisoblanadi. Arabistonda mazkur tamoyillar asosida Masdar shahri qurilmoqda va bunga yana ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Xulosa. O'zbekistonga yashil urbanizm g'oyalari endigina kirib kelmoqda. Shaharlarni barqaror rivojlantirish sharoitida, urboekotizimlarni kelgusi avlod uchun asrash, global iqlim o'zgarishi sharoitida shaharlarni barcha xavflarga qarshi turib bera olishi uchun "yashil urbanizm" g'oyalari aynan qo'l keladi. Ayniqsa, arid mintaqalarda joylashgan Nukus, Navoiy, Qarshi, Termiz, Buxoro kabi yirik va ushbu hududlardagi o'rta va kichik shaharlarni rivojlantirishda mazkur tamoyillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Beatley T. Green urbanism: learning from European Cities.-Washington, DC: Island Press, 2000. 491 p.
2. Глейзер Э. Триумф города. Пер. с английского. -М., Институт Гайдара, 2015. 432 с.
3. Даянтон П. Экополис: Архитектура и города против изменения климата. Аделаида: Springer, 2009.С-21.
4. Джекобе Д. Жизнь и смерть больших американских городов. Пер. с английского. -М., Новое издательство, 2011. 460 с.
5. Новиков И. Принцип голубого урбанизма как основа городской политики в прибрежных городах.// Вестник Московского университета имени С. Ю. Витте. Серия 1: 5(11). Экономика и управление. -М., 2014, с. 20-24.
6. Lehmann S. The Principles of Green Urbanism. Transforming the City for Sustainability; Earthscan, London, 2010.
7. Owen D. Green metropolis.-New York, 2009.
8. Tashtayeva S., Bakhramova S., Kosimov K. Urbanization and Geo-Urban Situation in Uzbekistan. // Indiana Journal of Humanities and Social Sciences.Volume-03|Issue-06|2022. <https://indianapublications.com/journal/IJHSS>.

РЕЗЮМЕ. Maqolada yashil urbanizm kontseptsiasining mohiyati yoritilgan. Jahonda bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar va ularning asosiy mazmuni bayon etilgan. Yashil urbanizmning asosiy tamoyillari va ushbu doirada jahon va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar va muammolar tadqiq etilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье раскрывается сущность концепции зеленого урбанизма. Описаны исследования, проводимые в этой области в мире, и их основное содержание. Исследуются основные принципы зеленого урбанизма и практические меры и задачи, реализуемые в мире и Узбекистане в этих рамках.

SUMMARY. The article reveals the essence of the concept of green urbanism. The studies carried out in this area in the world and their main content are described. The basic principles of green urbanism and practical measures and tasks implemented in the world and Uzbekistan within this framework are being explored.